

Farg'ona shahar hokimi va o'rinbosarlarining jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy qabul qilish GRAFIGI

F.I.Sh.	Xafta kunlari	Tashkilot pochta manzili	Telefon r
Lavozimi	Vaqti		Elektron p
Erkaboev Shavkat Shokirovich Farg'ona shahar hokimi	Chorshanba-Payshanba 14-00dan 16-00gacha	Farg'ona shahar E'tiqod ko'chasi 5-uy	243 243 fargonash
Karimov Ulug'bek Maxmudovich Farg'ona shahar hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	Chorshanba 10-00dan 12-00gacha	Farg'ona shahar Nurafshon ko'chasi 15-uy	243 fargonash
Raximjonov Ravshan Raxmonovich Farg'ona shahar hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik bo'yicha o'rinbosari	Seshanba 14-00dan 16-00gacha	Farg'ona shahar Nurafshon ko'chasi 15-uy	243 fargonash
Karimov Sherzod Adxamdjanovich Farg'ona shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Juma 14-00dan 16-00gacha	Farg'ona shahar Nurafshon ko'chasi 15-uy	243 fargonash
Alimova Sayyora Abdunabievna Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi	Payshanba 10-00dan 12-00gacha	Farg'ona shahar Nurafshon ko'chasi 15-uy	243 fargonash

Farg'ona shahar hokimligining rasmiy web sayti www.fargona.uz

Farg'ona shahar hokimligi manzili: Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar Nurafshon ko'chasi 15 uy.

150100 Ishonch telefoni: 0 (373) 243-91-91

Elektron pochta: info@fargona.uz

E-xat pochta: fargona.sh@exat.uz

Viloyatning ma'muriy markazi - Farg'ona shahri. O'zbekiston hududidagi bog'u-rog'larga burkangan eng soya-salqin shahar hisoblanadi. Shaharning deyarli barcha ko'chalari, bog' va xiyobonlarida chinor, terak, eman, qayin va boshqa daraxtlar ko'kka bo'y cho'zgan. Yashil chinor Farg'onaning ramzi etib tanlanganligi ham bejiz emas.

1. Shahar tashkil topganligi haqida ma'lumot

Shahar 1877 yili tashkil topgan. Shahar markazi - Farg'ona shahri.

2. Shahar joylashganligi haqida ma'lumot.

Shahar Marg'ilon va Quvasoy shaharlari hamda Toshloq, Farg'ona tumanlari bilan chegsharadosh. Umumiy er maydoni 95 kv.km ni tashkil etadi.

3. Aholi haqida ma'lumot.

Shahar 11 aholi yashash punktlaridan iborat bo'lib, u yerda 230 ming kishi istiqomat qiladi, shundan shaharda 229,8 ming kishi (99,9%) ni, qishloqda 200 ming kishini tashkil etadi. Aholini 65,8% ni o'zbeklar, 3% ni tojiklar, 18% ni rus millati va boshqa millat vakillari tashkil etadi.

4. Qo'shma korxonalar va sanoat korxonalar soni.

Shaharda 17 yirik sanoat korxonalari "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" AJ, "Farg'onaazott" AJ, "Farg'ona yog'-moy" Aj, "Farg'onadonmahsulot" AJ, "Evraziya Tapo-Disk" ?K, "Avtooyuna" AJ va b. Bu

sanoat korxonalarida benzin, dizel yoqilg`i, mineral o`g`itlar, un, avtomashinalar uchun oyna, avtomashinalar g`ildiragi uchun disklar, o`simlik yog`i va b. ishlab chiqariladi.

Bundan tashqari 30 qo`shma korxonalar ro`yxatga olingan. Hozirda 28 ta qo`shma korxonada faoliyat yuritadi.

5. Yangi yaratilgan ishchi o`rinlar.

Tumanda yangi yaratilgan ishchi o`rinlar soni - 8267 ta.

6. Kichik biznes sub'ektlari va fermer xo`jaliklari.

Kichik biznes sub'ektlarining umumiy soni 2793 ta shundan 341 tasi fermer xo`jaliklari (har bir fermer xo`jaliklari uchun o`rtacha yer maydoni 6,7 ga).

7. Bilim yurtlari va sog`liqni saqlash ob'ektlari.

Shaharda 38949 ta o`quvchiga mo`ljallangan 47 ta o`rta umumta'lim maktablari, 29032 ta talaba mo`ljallangan 19 ta kasb hunar kollejlari mavjud. Bundan tashqari 649 ta bemorga mo`ljallangan 10 kasalxona, 29 ta shifoxona va 6 qishloq vrachlik bo`limlari faoliyat yuritmoqda.

2017-04-28 11:46:54